

## O'RGANILAYOTGAN TILLARDAGI DIPLOMATIK ATAMALARNI CHOG'ISHTIRISH

Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

[ibodullayevadinora@gmail.com](mailto:ibodullayevadinora@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12681549>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida diplomatik atamalarni qo'llashning nazariy ahamiyati muhokama qilinadi va ular ikki til nuqtai nazaridan solishtiriladi. Tilshunoslik atamalarning shakl jihatidan turlari haqida ham ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Davlat daxlsizligi, Diplomatiik auditoriya, Immigratsiya nazorati, Xalqaro zona, Konsullik binolari, Konsullik majburiyatlari, Konsullik xizmatlari, Flagstaff, Diplomatiik til.

### MIXING DIPLOMATIC TERMS IN THE STUDIED LANGUAGES

**Abstract.** This article discusses the theoretical significance of the use of diplomatic terms in English and Uzbek and compares them from the perspective of the two languages. Linguistics also provides information about the types of terms in terms of form.

**Keywords:** State immunity, Diplomatic audience, Immigration control, International zone, Consular premises, Consular duties, Consular services, Flagstaff, Diplomatic language.

### СМЕШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ИЗУЧАЕМЫХ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается теоретическое значение использования дипломатических терминов на английском и узбекском языках и сравнивается их с точки зрения двух языков. Лингвистика также предоставляет информацию о типах терминов с точки зрения формы.

**Ключевые слова:** Государственный иммунитет, Дипломатическая аудитория, Иммиграционный контроль, Международная зона, Консульские помещения, Консульские обязанности, Консульские услуги, Флагшток, Дипломатический язык.


Terminologik tizimlarning boyib borish yo'llari har xil bo'lib, uning asosiysi so'z yasashdir. Umumadabiy tildan farqli o'laroq, terminlarni yasalishida, asosan, quyidagi uch xil usuldan foydalaniladi:

Chog'ishtirilayotgan turli tizimli tillarning, ingliz va o'zbek tillarini strukturaviy tahlili nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, ularning semantikasini o'rganish muammosi paydo bo'ladi. "Semantika" til birliklarining semantik tomonini, ularning muloqot jarayonida kommunikativ rolini bildiradi. Uning gnoseologik asosini hamisha inson ongida voqelik predmetlari, hodisalari va munosabatlarning aks etishi tashkil etadi. Terminlarning struktur talili yordamida hosil

bo'lgan so'zlarning semantikasini ochish - bu elementlarning qiymatlari bo'lgan harakatni ochishni anglatadi. Ingliz va o'zbek tili diplomatik terminlari tuzulish jihatdan turfa bo'lib, ularning o'ziga xos jihatlarini farqlash lozim. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qo'llangan diplomatiya terminlarini ushbu sohaga ixtisoslashganlik darajasiga ko'ra quyidagicha tasniflash o'rinli:

- a) xos diplomatik terminlar;
- b) asosan diplomatiyada, qisman, boshqa sohalarda qo'llanuvchi terminlar;
- d) ham diplomatiyada, ham boshqa sohalarda baravar qo'llanuvchi terminlar;
- e) asosan boshqa sohalarda, qisman diplomatiyada qo'llanuvchi terminlar.

**O'zbek tili diplomatik terminlarini tuzilishiga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajralishi.**



## 2- rasm

### Ingliz va o'zbek tillarida sodda terminlar:

**O'zbek tilida:** *viza, vakil, sulh, nota, Diplom, Visum, attashe, Protokol, Konsul, baza, sanksiya, inqiroz, holat, muzokara, vakolat, samit, qaror, chegara, tartib, missiya, tashabbus, hudud, ittifoq, pakt, kongress, Veto,*

**Ingliz tilida:** *vane, council, Attache, protocol, base, mission, congress, consensus, diploma, appeal, note, visit, border, summit, regulate,*

**Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma terminlar:**

**o‘zbek tilida:** *diplomatiya, protektorat, muzokar, diplomatik, ta’limot, elchixon, maslahatchi, konsullik, deklaratsiya, deportatsiya, Diplomat, Konsulat, elchi, kolonizatsiya, konvensiya, diskriminatsiya, ekstraditsiya, deklaratsiya, to‘xtam, xushmuomalalik, qo‘zg‘olon, ayirmachi (separatist), undamoq, qochoq, deportatsiya, o‘tkazish, yetakchilik, skrining, muvofiqlik, arbitraj, deportatsiya, zabt etmoq, dissident, bosqinchilik, jilovlash, bitim, ittifoqchi, agreman,*

**Ingliz tilida:** *counsellar, accreditation, agenda, rapprochement, reclaim, regalement, treatment, ultimatum, exequatur, corrigendum, dispatch, revision, addendum, alteration, Diplomatenpass, Diplomatenausweis, confoederatio, Dollardiplomatie, Geheimdiplomatie, agreement, Einreisevisum, Ausreisevisum, Durchreisevisum; Militärattache, Presseattache, Luftattache, Protokollabteilung, Diplomatie,*

**Ingliz va o‘zbek tillarida gibrid terminlar:**

**o‘zbek tilida:** *adolat prinsipi, Aralashmaslik prinsipi, Bildirish xati, Bir tomonlama akt, Davlat immuniteti, Diplomatik audiyensiya, Immigratsion nazorat, Xalqaro zona, Konsullik binolari, Konsul vazifalari, konsullik xizmatlari, flagshtok, diplomatik til,*  
ingliz tilida gibrid shaklidagi diplomatik terminlar uchramadi.

**Ingliz va o‘zbek tillarida juft terminlar:**

**o‘zbek tilida:** *Xalqaro-huquqiy e’tirof, De-yure, de-fakto, Anti-Komintern pakti, jahon jandarmi, vitse-konsullik*

**ingliz tilida:** *Ad-hos, ad referendum, Par interim, ad interim, antikomintern pact, world gendarme, aide-memoire, process-verbal, battle-tested, vice-consulate*

**Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartmali terminlar:**

**o‘zbek tilida:** *BMT, SHXHT, YeXHT, YUNESKO, (Group of eight) G8,*

**ingliz tilida:** *UNICEF, NATO, UNESCO, (The United Nations Human Rights Council) UNHRC, UN, PMT (members of parliament), GVT (government)*

**Ingliz va o‘zbek tillarida birikmali terminlar:**

**o‘zbek tilida:** *sanksiyalar tahdidi, qochqinlar ko‘chkisi, davlatga qarshi tashviqot, Diplomatik vakil. Muxtor vakil, o‘zaro kelishuv, tashqi savdo, do‘stona bo‘lmagan, diplomatik immunitet, diplomat nazorat, diplomatik korpus, Davlat chegaralari, Diplomatik viza, Xalqaro ehtirom,*

**ingliz tilida:** *persona nongrata, European security, summarized version, European*



*Communities, Letters derappel, diplomatic corpus, diplomatic cureer, diplomatic service, diplomatic classes, diplomatic agent, diplomatic act, true copy, curriculum vane, consular commission, note verbal (verbal note), letter of credence, letter of recall, additional protocol, application for agreement, diplomatic pouch, verbal notes, notes verbal, notes, personal notes, circular notes*

Diplomatik nutqning til xususiyatlari—Har bir til millat milliy ma'naviyatining betakror ko'zgusi sifatida, shu xalqning borligi va birligi belgisi sifatida o'rganiladi va o'rgatiladi. Shuning uchun har bir kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashida tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tilidan tashqari, rasmiy – ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq, bu jamiyat a'zolari uzaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan. Ma'lumki, har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, shunday ekan, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur bu tildir. Rasmiy hujjatlar tili ham ma'lum davrda faqat hukmron bo'lgan qatag'on davrning tilida yuritildi. O'zbek tili Davlat tili maqomiga ega bo'lgach, rasmiy hujjatlar tili ham o'zgardi. Hozigi kunda o'zbek hujjatchiligini takomilashtirish, ularning sof o'zbek tilidagi yagona andozalarini yaratish, bular bilan bog'liq atamalarining bir xilligiga erishish borasida ish olib borish dolzarb muammolardandir. Rasmiy uslubda adabiy me'yorga qat'iy rioya qilinadi, shevaga xos so'zlar, jargonlar, har xil stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar ishlatilmaydi. Jumlar ham inversiyasiz bo'lishi lozim. Gaplarda ta'sirclianlik bo'lmaydi. Bu uslubda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o'xshash maxsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma'lumotnomalar, qarorlarni ko'rsatish mumkin. Agar pul, buyum miqdori ko'rsatilishi lozim bo'lsa, oldin raqam bilan, so'ng qavs ichida harflar bilan yoziladi. Hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo'nda (ravon) bayon qilinishi lozim. Bunda xatboshi (abzas)ning o'rni muhimdir. Har bir yangi, alohida fikr xatboshi bilan ajratilishi, bir xatboshi bilan ikkinchi xatboshi o'rtasidagi matn to'rt-besh jumladan oshmasligi me'yorga mosdir.

## REFERENCES

1. Savory T. The language of science: its growth, character and usage / T. Savory. – London: Andre Deutch, 1953. – P.43
2. Catford C. Linguistic theory of translation / C. Catford. – Oxford, 1965.–P.78.

3. Narxodjayeva X. O'zbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik xususiyatlari. Filol.fan.bo'yicha.fals. dok.diss.avto-ref.-Toshkent, 2017.
4. Odilov Yo. O'zbek tilida enantiosemiya. Dok. diss. avto-ref. -Toshkent, 2016.
5. Ismailov G'. O'zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Filol.fan.nomz.diss.avto-ref.-Toshkent, 2011.